XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANİ KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-91-318-7-95-K/22 Ishtixon tuman hokimligi

Ishtixon tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

Budjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 91-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq, Ishtixon tuman mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 158 413 900,0 ming so‘m, xarajatlari 275 407 784,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 116 993 884,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

- 2023-yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

- 2023-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq;

- Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti zahira jamg‘armasi hajmlari 2 598 187,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

4. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetidan fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga ajratiladigan mablag’lar 12 990 933,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. 2023-yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 359 000,0 ming so‘m deb belgilansin.

6. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

7. 2023-yilda quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- aylanmadan olinadigan soliq;

- norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

8. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (S.Ibragimov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Bayzokov) tuman tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

9. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (K.Yavkochdiyev):

- budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

- soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

- tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari viloyat, shahar va tumanlar Kengashlariga kiritib borilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Egamov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **K.E.Yavkochdiyev**

Xalq deputatlari Ishtixon tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-91-318-7-95-K/22-son qaroriga
1-ilova

Ishtixon tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**158,413,900**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	43,565,900
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	11,316,000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8,124,000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12,454,000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1,655,000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3,884,000
7	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	850,000
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1,518,000
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	9,611,000
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	13,742,000
11	Aylanmadan olinadigan soliq	7,793,000
12	Yig‘imlar	459,000
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	124,000
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	17,524,000
15	Mobil aloqa xizmati	7,517,000
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	18,277,000

Xalq deputatlari Ishtixon tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-91-318-7-95-K/22-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun Ishtixon tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming.so‘m

№	Nomlanishi	2023 yil
1	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	14,431,472.0
2	Xalq ta’limi bo‘limi	15,436,895.0
3	Tibbiyot muassasalari	84,790,000.0
4	Madaniyat tashkilotlari	3,592,588.0
5	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	6,622,032.0
6	Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi	841,246.0
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish tashkilotlari	2,494,500.0
8	Irrigatsiya bo‘limi	1,385,000.0
9	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1,354,228.0
10	Moliya bo‘limi	1,394,196.0
11	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ishtixon tumanidagi muassasalar	616,863.0
12	Hokimiyat	127,990,918.0
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	198,443.0
14	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi	5,463,425.0
15	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	3,716,126.0
16	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-qo‘vvatlash bo‘limi	5,079,852.0
	Jami xarajatlar	**275,407,784.0**

Xalq deputatlari Ishtixon tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-91-318-7-95-K/22-son qaroriga
3-ilova

2023-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yori

T/R	Tuman nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yig‘imlar	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Aylanmasidan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari
1	Ishtixon tumani	100	100	100	100	70	50	100	100